

UO‘K 338.981:796.5(021)

TURIZMDA INNOVATSION FAOLIYATNI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB- QUVVATLASHNING IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Jabborova Zuhra Abdig‘ani qizi – doktorant (PhD), e-mail: zuhrajabborova5663@mail.ru

Qarshi davlat universiteti, Qarshi sh., O‘zbekiston

***Annotatsiya.** Maqolada turizm xizmatlari sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo‘nalishlari va innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish hamda innovatsion texnologiyalar, ularning mazmuni, qo‘llanilishi va samaradorligi bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** turizm xizmatlari, innovatsion faoliyat, rentabellik, investitsiya, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, innovatsiya, elektron tijorat, 3D, IT-texnologiya.*

УДК 338.981:796.5(021)

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОДДЕРЖКИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ТУРИЗМЕ

Жабборова Зухра Абдиганиевна- докторант(PhD), e-mail: zuhrajabborova5663@mail.ru

Каршинский государственный университет, г.Карши, Узбекистан

***Аннотация.** В статье представлены предложения и рекомендации по направлениям развития инновационной деятельности в сфере туристских услуг и совершенствованию экономических механизмов государственной поддержки инновационной деятельности, а также инновационных технологий, их содержания, применения и эффективности.*

***Ключевые слова:** туристические услуги, инновационная деятельность, рентабельность, инвестиции, государственная поддержка, инновации, электронная коммерция, 3D, IT-технологии.*

UDC 338.981:796.5(021)

IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS OF STATE SUPPORT OF INNOVATIVE ACTIVITY IN TOURISM

Jabborova Zuhra - Doctoral student (PhD), e-mail: zuhrajabborova5663@mail.ru

Karshi State University, Karshi city, Uzbekistan


***Abstract.** The article provides proposals and recommendations on the directions of development of innovative activities in the field of tourism services and the improvement of economic mechanisms of state support for innovative activities, as well as innovative technologies, their content, application and effectiveness.*

***Key words:** tourism services, innovative activity, profitability, investment, state support, innovation, e-commerce, 3D, IT technology.*

Kirish. Jahon sayyohlik tashkilotining ma‘lumotlariga ko‘ra, turizm sanoati jami xizmatlar bozori aylanmasining 10 foizini taminlasa, dunyo bo‘yicha investitsiya kiritilgan sohalarning 7 foizini tashkil qiladi, soliqli tushumlari hisobida esa 5 foiz ulushga ega [1].

Bundan ko‘rinib turibdiki, turli mamlakatlar siyosati va iqtisodiy hayotida o‘z o‘rini topayotgan, dunyo mamlakatlari bozorida faol aylanma harakatga ega sohalar sirasiga kirib bormoqda. Yuqorida takidlab o‘tganimizdek, innovatsion asosga ega iqtisodiy rivojlanishning bugungi kundagi zamonaviy

bosqichining zarur xususiyatlaridan biri davlat iqtisodiyotining o‘shida innovatsion texnologiyalarni joriy etishning rolini oshirish, shu bilan birga rivojlangan mamlakatlarning yuqori texnologiyalar hamda nostandart nomoddiy aktivlar orqali raqobatlashishga intilishidir. Raqobatbardosh mahsulotlarni yaratish, ularni turizm bozoriga chiqarish, tushayotgan foyda aholi turmush darajasini ortishiga xizmat qilishi mamlakat iqtisodiyoti reytingining jahon miqyosida oshishiga yordam beradi. Shu sababli turizmning rivojlanishi mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun ham ahamiyatlidir. Davlat qonunchiligida innovatsion texnologik jarayon mahsulotni yangidan yaratish yoki qayta takomillashtirish texnologik jarayonni yakuniy natijasi sifatida baholanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-yanvarda “Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohalarini yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish to‘g‘risida” [2] gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmon mazmuniga ko‘ra turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirish maqsadida qo‘shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqish va uning natijasi o‘laroq yurtimiz siyosati va ilmiy izlanishlar va texnologiyalarning muvaffaqiyatli yutuqlaridan samarali foydalangan holda “national innovation system” tizimini shakllantirish zaruratini takidlaydi. Davlatning aralashuvi natijasida turizmni rivojlantirish iqtisodiy siyosati mavjud tizim ustuvorligi va kelajagini ta’minlash maqsadida barcha darajadagi davlat hokimiyati organlari, tashkilotlarni safarbar etish, iqtisodiyotning yetakchi texnikaviy sohasi hamda tadbirkorlik sektori qo‘llab-quvvatlashi, fan va texnika yutuqlaridan maqsadli rejalarda jadal foydalanish ta’minlash lozimligini ko‘rsatadi. Buning isboti va erishilgan natijalar sifatida 2022-yilning o‘zidayoq O‘zbekistonga 5,2 million sayyoh tashrif buyurganini ayta olamiz. Tashriflar soni bo‘yicha Turkiya yetakchi o‘ringa ega bo‘lib, 75,6 ming sayyohni tashkil etadi. Qolgan davlatlar ulushi esa Koreya Respublikasidan 19.9 ming, Germaniyadan 17,7 ming, Hindiston 16,8 ming, Amerika Qo‘shma Shtatlari 15,1 ming, Fransiyadan 11 ming, Buyuk Britaniyadan 10,5 ming, Ozarbayjon 10,4 ming, Italiya 8,8 mingni tashkil etadi. Ammo Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stli mamlakatlari orasida eng ko‘p tashrif Rossiya davlatidan 600 ming sayyohni tashkil etadi. Tashriflar sonining oshishida turizm sohasi va xizmat ko‘rsatishda innovatsion texnologiyalarga asoslangan zamonaviy, qulay muhitni yarata olingani katta yordam berdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.



1-rasm. 2022-yilda O‘zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar soni

Shu sababli, innovatsiyalarni rivojlantirishni belgilovchi omillar va uslublar natijasi ham davlat darajasida muhim, ham jahon turistik tashkilotlari talab darajasiga javob bera oladigan salohiyatga ega, yuqori sifatli o'rinda amalda oshirilishi kerak. Aynan innovatsion o'sish raqobatbardosh xizmatlar va iste'molchi talablariga mos keladigan mahsulotlarni yaratishga, nafaqat yagona korxonaning, balki butun turistik strukturaning iqtisodiy holatini o'sishiga olib keladi.

Uslub va materiallar

Bugungi kunda ilmiy-texnika va innovatsion salohiyat mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega omillardan hisoblanadi. Olingan natijalarni solishtirish, yangi tajribalarni joriy etishda davlatning qo'llab-quvvatlashiga erishish, solishtirma tahlil va baholash usullari orqali kompleks tadqiqotlarni tashkillashtirish va olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Turizm sohasini rivojlantirishning ba'zi nazariy va amaliy jihatlari, turizmde menejment va marketingning turli subyektlar faoliyatidagi ko'rinishi, turizm sektorini rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvining roli, turizm sohasi rivojlanishining ko'rsatkichlari va uni rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammolar, turizmde innovatsion boshqaruv va texnologiyalarga asoslangan faoliyatni rivojlantirish masalalari, turizm bozorini tartibga solishning huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari, turizm sohasini qo'llab-quvvatlashda davlat siyosatining ahamiyati va asosiy yo'nalishlari, turistik xizmatlar samaradorligini baholash usullari, turizm sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari xorijiy olimlardan Ye.A.Medvedeva [3], Giulio Aramberri, Richard Batler [4] hamda MDH davlatlari olimlaridan M.A.Morozov [5], I.V.Zorin [6], V.S.Bogolyubov, V.P.Orlovskaya [7] va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan.

Respublikamiz olimlaridan R.X.Ergashev [8], I.S.Tuxliev, M.Q.Pardaev, G.H.Qudratov [9], T.V.Kim [10], D.Q.Usmonova [11]larning ilmiy asarlarida yoritib berilgan.


Turizm sektorida yangi innovatsion texnologiyalarni qo'llashni takomillashtirishda qonun hujjatlarida belgilangan bir qator imtiyoz va qo'shimcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Tizimni rivojlantirishda doir yaratilgan yagona konsepsiyani amalga oshirishda davlat boshqaruvining ko'magi va qo'llab-quvvatlashi asosida iqtisodiy mexanizmlarni yoritish, turizmni yaxlit infratuzilma sifatida o'rganish, bir qancha mutaxassislar fikri va izlanishlariga tayangan holda statistik va qiyosiy tahlildan foydalanish hamda mavjud tuzilmani yanada rivojlantirish maqsadida yangi tarmoq rejalarini ishlab chiqishga asoslanadi.

Natijalar

Bizga sir emaski turizm bir necha sohalar bilan bog'liqlikda rivojlanadi. Unga misol qilib iqtisod, menejment, lingvistika, texnika va boshqa sohadagi bir necha tarmoqlarni ayta olamiz. Yaratilayotgan innovatsion yangiliklar o'zaro bog'liq bo'lib, birini to'liq, mukammal rivojlantirish uchun ikkinchisida ham shunday o'zgarishlar qilishni talab etadi. Turizm industriyasi korxonalari uchun yangi innovatsion g'oyalarni tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday innovatsiyalarga misol qilib raqamlahtirish, onlayn boshqaruv tizimiga o'tish, yangi turpaket va sayyohlik manzillarini ochish, xizmat ko'rsatish sohasida qo'shimcha xizmatlar turi va sifatini oshirishni ayta olamiz. Bunday g'oyalarni shakllantirish innovatsion strategiyani mustahkamligi, boshqaruv sohasida ham innovatsion yechimga ega tizimni shakllantirish zaruriy shartlarini qondirishga yordam beradi. Yangi turistik mahsulot yaratish bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. Jarayon rivojlanish darajasi iste'molchilar bozori yoki ma'lum xaridor talabini qay darajada qondira olish qobiliyati orqali aniqlanadi. Mahsulot hajmi, turi va sifat ko'rsatkichlarga qarab korxonaning innovatsion faolligi baholanadi. Ketma-ketlikda o'zaro bog'liq holda rivojlangan ushbu jarayon iqtisodiy o'sish va aholi turmush darajasini yaxshilanishiga imkon yaratuvchi zarur shartlardan biridir.

Rivojlanayotgan va yuqori iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga ega turistik tashkilot va korxonalar o'z o'rnini saqlab qolish uchun yuqori standart talablarga javob beruvchi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish zarurligini anglab yetmoqda. O'zining noyob tabiiy va madaniy salohiyati, shuningdek, uzoq va yaqin chet ellik sayyohlarning ko'hna, tarixiy maskan sifatida katta qiziqishi tufayli mamlakatimiz turizm sohasini innovatsion rivojlantirish uchun barcha asoslarga ega. Turizm sohasida innovatsion tizimni shakllantirishning asosiy yo'nalishlari davlat siyosatining asoslarida

nazarda tutilgan holda ishlab chiqildi. Quyidagi diagrammada ular tavsiflab berilgan:



2-rasm. Turizm sohasida innovatsion tizimni shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari

Munozara

Barcha tarmoqlar singari innovatsion faoliyatni rivojlantirishda ham ma’lum darajada orqada qolayotgan qism va muammolar mavjud. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining zaif bo‘g‘ini sifatida esa boshqarish tizimidagi mexanizmi aytalolamiz. Bugungi innovatsiyalar qurshovidagi dunyoda aynan innovatsiyalar iqtisodiyotning jadal rivojlantiruvchi kuchi ekanligi, buning uchun unga barcha turdagi soha ilmiy-texnologik yangiliklari ko‘maklashishi va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish lozimligini talab etiladi. Buning uchun barcha innovatsion yutuqdar, yangi g‘oyalar, yuqori salohiyatli investitsiya hamkorlariga ega bo‘lish zarur.

Elektronlashtirilgan tizimning bir qator afzalliklari mavjud bo‘lib, u ortiqcha harakat va xarajatsiz yuqori daromadga erishish imkonini beradi. Shu bilan birga turistik mehmonxonalar, aeroportlar yoki turizm biznesining boshqa sub‘ektlari bir necha yuzlab, balki minglab mijozlarning axborotlarini tahlil qilishi, ularga samarali xizmat ko‘rsatishi kerak. Undan tashqari, bu bizneslar o‘z xodimlari va hamkorlari bilan bog‘liq axborotlar oqimini boshqarishi ham kerak. Shu tufayli, sohaning ko‘p tarmoqlarida avtomatlashtirish jarayonlari afzal ko‘rmoqda. Insonlar amalga oshirishi qiyin bo‘lgan ishlarni kompyuterlar, robotlar va sun‘iy ong bajarishi bizning davrimizga kelib odatiy holga aylanmoqda. Bunday biznes faoliyati ko‘pgina korxonalar uchun qulay va keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Bu jarayon uchun zarur bo‘lgan zamonaviy telekommunikatsiya, internet tarmog‘i, standart talablarga javob beruvchi so‘nggi usuldagi texnologiya modellar turizm sektori uchun onlayn turistik bozor munosabatlarni shakllantiruvchi yangi yo‘l hisoblanadi. Ushbu savdo tizimi ham xaridorlar, ham sotuvchilar uchun javob beradi. Lekin asosiysi shundaki, turizm elektron tijoratning boshqa tarmoqlariga nisbatan muhim ustunlikka ega – uning iste‘molchisi sotib olingan mahsulotni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqarilgan joyida, turistik markazda oladi.

Raqamli texnologiyalarga asoslangan tizimning asosiy afzalliklari:

- ✓ savdoni avtomatik boshqarish;
- ✓ mehnat xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish;
- ✓ sanoat josusligi va narx raqobatidan himoya qilish.

Turizm bozori vakillariga har bir mijoz uchun alohida soniyada hisoblab chiqiladigan joriy narxlarda eng yaxshi takliflarni onlayn kuzatish va bron qilish imkonini beradi.

Turizm bozori vakillariga har bir mijoz uchun alohida soniyada hisoblab chiqiladigan belgilangan narxlarda mijozlar uchun eng maqul takliflarni onlayn kuzatib borish va bron qilish

(talablarni qondira olgan taqdirda) imkonini beradi. Bugungi kunda o‘zaro raqobatlashayotgan turoperatorlarni kiritayotgan yana bir yangiligi aviakompaniya parvozlarini 3D ro‘yxatga olish bo‘ldi. Sayyohlar samolyot bortida joyni oldindan tanlaydilar, ro‘yxatdan o‘tadilar va bortga chiqish ruxsatnomasini oladilar. Bundan tashqari, sayohatchilar uchun yanada qulaylik yaratish maqsadida xaridorlarga samalyotda mavjud o‘rinlar haqidagi ma’lumotlar oldindan taqdim etiladi. Yo‘lovchilar o‘z o‘rinlarini uchish muddatidan ancha oldin (bir yoki uch oy) bron qilish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bunday turdagi ro‘yxatga olish tizmi reyslardan ommaviy foydalanishda, reysga chiqish vaqtida hosil bo‘ladigan o‘ta tirbandlikni oldini olish va tekshiruv punktlarida hosil bo‘ladigan uzun navbatlarni oldini olishga imkon beradi.

Xulosa

Shunday qilib, turizm sektorida innovatsion faoliyatni takomillashtirishda davlat boshqaruv hokimiyatining ahamiyati, uning vakillik organlari va boshqa tashkilotlarning ko‘magi, shuningdek, faoliyati huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadigan turizm kompaniyalari va turizm sohasi korxonalarini qamrab oluvchi murakkab jarayon hisoblanadi. Turizm samaradorligini rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishdan oldin mavjud tizim va hududning iqtisodiy, madaniy, siyosiy holatini aniqlash va kerakli innovatsion tizim konsepsiyasini ishlab chiqish zarur. Agar mavjud ko‘rsatkich munosib baholanmasa, ishlab chiqariluvchi taklif qilayotgan tovar va xizmatlar sifati talab darajasini qondirish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi, ortiqcha, keraksiz sarf xarajatning osishi korxonalar yoki tuzilma iqtisodiyotida sezilarli zarar yetkazadi. Xizmat ko‘rsatish sohasida amalga oshiriladigan bu jarayon ketma-ketligi samaradorligiga erishish maqsadida fan-texnika, IT-texnologiya yutuqlari, ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribalari, marketing va menejment sohasida aniq rejali kompleks tizimdan foylanish lozim. Bir vaqtning o‘zida mamlakat va mintaqalarning turistik enteryeri va jozibadorligini oshirish imkoniyati yaratiladi. Zamonaviy turizm bozori infrastrukturasi rivojlantirish aylanma harakat dinamikasining iqtisodiy mexanizmini tashkil etish uchun davlat ahamiyati, uning qo‘llab-quvvatlashishiga erishish, qonun hujjatlari bilan asoslangan imtiyoz va qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish, turizm tarmoqlarini jadal rivojlantirishning doimiy takomillashtirilib turiluvchi rejasini yaratish zaruratini beradi. Xulosa qilib aytganda, turizmda innovatsion faoliyatni rivojlantirish muhim zaruriyat hisoblangan iqtisodiy sohalardan biridir.

Adabiyotlar

- [1] Сайт Всемирной туристской организации:// www.unwto.org/en
- [2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohasini yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish to‘g‘risida” gi № PF-52-sonli farmoni, 15.01.2022-yil.
- [3] Медведева Е.А. Инновационная концепция туризма //К.д.н. дисс. Москва: 2002.-195 с.
- [4] Julio Aramberri, Richard Butler “Tourism development: Issues for a Vulnerable Industry”, Arizona State University. USA 2004.-293p.
- [5] Морозов М.А. Инфраструктурное обеспечение предпринимательской деятельности в туризме: монография. – М.: РосНОУ, 2005.
- [6] Зорин И.В. Менеджмент туризма: Туризм как вид деятельности. – М.; Издательство: Финансы и статистика, 2005. – 151с.
- [7] Боголюбов В.С., Орловская В.П. Экономика туризма. – М.; Издательский центр “Академия”, 2008. – 384 с.
- [8] Rakhmatulla Khidirovich Ergashev, Zuhra Jabborova “The importance of innovative activity in tourism”. Scholar Journal (ESJ) 4, April 2021. P 467-472.
- [9] Tuxliyev I.S., Qudratov G.H., Pardayev M.Q. Tuizmni rejalashtirish. Darslik. – T.: “Iqtisod va moliya”. 2010 – 238 b.
- [10] Ким Т.Б. Инновационное развитие сферы туризма в условиях модернизации экономики. Докторская диссертация. СамИСИ, 2019 – 156 с.
- [11] Усмонова Д.К. Особенности формирования туристского продукта и перспективные направления его развития. Автореферат. – Самарканд, СамИСИ, 2009. – 25 с.